

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

DJALILOV FAXRIDDIN AZIMOVICH

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Djalilov Faxriddin Azimovich

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan
qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari 3

Джалилов Фахриддин Азимович

Основные направления государственной поддержки инновационной
деятельности в сфере услуг 27

Jalilov Fakhriddin Azimovich

The main directions of state support for innovation in the service sector 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

DJALILOV FAXRIDDIN AZIMOVICH

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2531 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Arabov Nurali Uralovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mirzaev Qulmamat Jonizakovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Turdibekov Xasan Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muxammedov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqobatlashuv darajasining keskin darajada o'sib borishi sharoitida xizmat ko'rsatishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, zamonaviy xizmat ko'rsatish turlarini joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish hamda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 foizni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar hissasi esa 3 foizni tashkil etmoqda. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlar ulushi 70,0 foizdan ortiqni va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 foizi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosida xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda bozor tamoyillariga muvofiq innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy dastaklardan maqsadli foydalanish hamda samarali raqobat usul va vositalarini ishlab chiqish yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada innovatsion tadbirkorlikni samarali tashkil qilish, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan bozor usullariga muvofiq holda qo'llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani istiqbol talablarini e'tiborga olgan holda rivojlantirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarini innovatsion asosda rivojlantirish, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish intensivligi va samaradorligini zamonaviy talablarga ko'ra ta'minlash hamda xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish borasida dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ... 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, sohada innovatsion tadbirkorlikni keng joriy etish, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali usullarini joriy etish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021 yil 30 sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 16

¹ <http://stats.oecd.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

iyundagi PQ-4752-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 apreldagi 246-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining shakllanishi, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish, raqobatni shakllanishi, iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar³, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, K.X.Haksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xizmat ko‘rsatish sohasini boshqarish xususiyatlari, servis faoliyatining innovatsion jihatlari xorijlik olimlar⁴, jumladan: E.F.Avdokushin, T.D.Burmenko, V.A.Bespalov, V.A.Demidov, N.N.Lebedeva, O.S.Oleinik, A.P.Egorshin, S.A.Zaichenko va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan⁵ M.Q.Pardaev, M.E.Po‘latov, M.M.Muxammedov, D.R.Zaynalov, Q.J.Mirzayev, I.S.Tuxliev, X.P.Abulkasimov, T.S.Rasulov, N.U.Arabov, D.X.Aslanova, B.Sh.Safarov va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.

⁴ Авдокушин Е.Ф. и др. Новая экономика: монография / Под ред. Е.Ф.Авдокушина, В.С. Сизова. - М.: Магистр. - 2009. - 542 с.; Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Беспалов В. А. Государственная научно-техническая и инновационная политика: учеб. пособие / Б.А. Беспалов Д.Б. Рыгалин; Моск. гос. ин-т электрон, техники (техн. ун-т). - М., 2007. - 92 С.; Демидов В. А., Лебедева Н.Н., Олейник О.С. Региональная инновационная система: потенциал и тенденции развития. - Волгоград: Изд-во Волгоградского гос. ун-та. - 2008. - 316 с.; Егоршин А.П. и др. Управление инновационным развитием региона. Монография. - Нижний Новгород: НИМБ. - 2008. - 283 с.; Заиченко С.А. Развитие инноваций в сфере услуг // Форсайт. 2007. - № 1. - С. 30-33.

⁵ Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пулатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув кўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 332 б.; Абулкасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие. – Т.: ТашГИВ 2017. – С. 15-17.; Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журналы//Самарқанд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Киев. 1992 – С. 20.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni davlat tomonidan tartibga solishning ayrim jihatlarini o'rganilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish jarayonlarida innovatsion faollikni oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №SIRB-02 "Raqqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"innovatsiya", "innovatsion faoliyat" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullari va vositalarini tasniflash;

sohada innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish va undan respublikamiz iqtisodiyotida qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati va tendensiyalarini tahlil etish;

hududda ilmiy-innovatsion soha rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish omillari va marketing tadqiqoti risklarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ilmiy asoslash;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari va korxonalarining xo'jalik faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash va imitatsion modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish tizimi xizmat ko'rsatishda "o'zaro munosabatlar marketingi" dan faol foydalanishga ko'ra raqobat bozorida yangi turdagi xizmatni sertifikatlash kabilarni e'tiborga olgan holda takomillashtirilgan;

raqobat bozorida yangi turdagi xizmatni realizatsiya qilish jarayoni marketing tadqiqoti va marketing amaliyotida innovatsion loyiha natijalari realizatsiyasi va joriy resurslar ta'minoti bilan bog'liq marketing risklari nazoratiga ko'ra takomillashtirilgan;

iqtisodiyot transformatsiyalashuvi jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga ko'ra hududiy innovatsion infratuzilma elementlari zaruriy tarkibi optimal darajasini shakllantirish va barqaror aloqalarini o'rnatish orqali xizmat ko'rsatish sohasi sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash taklifi asoslangan;

tender asosida innovatsion ishlanmalar va loyihalarni realizatsiya qilish, kichik innovatsion korxonalariga imtiyozli kreditlar uchun davlat kafolatlarini taqdim etish asosida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ilmiy asosi sifatida "innovatsiya", "innovatsion faoliyat" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari rivojlanishining maqsadlarga erishish, xizmatlarning yakuniy natijalarga muvofiqligi, xizmatlar bozorida talab va taklif muvofiqligi, xizmatlar bozorini rivojlantirishda transversallikka erishish hamda mehnat unumdorligi o'sishini ta'minlash tamoyillari ishlab chiqilgan.

xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyatini strategik rejalashtirish jarayoni ichki va tashqi muhit omillarini strategik tahlil qilish, korxonaning strategik maqsad va vazifalarini aniqlash, uning strategik rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda kelgusida korxonani strategik rivojlanishini istiqbollashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, korxonalar faoliyati samaradorligini baholash usullarini tasniflash, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini strategik rejalashtirish hamda

xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarish yo'nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, korxonalarda resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faollikni oshirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi hamda "Iqtisodiyot nazariyasi", "Innovatsion iqtisodiyot", "Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish tizimi xizmat ko'rsatishda "o'zaro munosabatlar marketingi"dan faol foydalanishga ko'ra raqobat bozorida yangi turdagi xizmatni sertifikatlash kabilarni e'tiborga olgan holda takomillashtirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2022-2023 yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 28 apreldagi 11/03-15-4985-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni guruhlash orqali innovatsion faoliyat natijadorligiga erishish yo'nalishlarini aniqlashtirish imkoniyatini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

raqobat bozorida yangi turdagi xizmatni realizatsiya qilish jarayoni marketing tadqiqoti va marketing amaliyotida innovatsion loyiha natijalari realizatsiyasi va joriy resurslar ta'minoti bilan bog'liq marketing risklari nazoratiga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2022-2023 yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 28 apreldagi 11/03-15-4985-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish xizmatlar bozorida yangi turdagi xizmatlarni realizatsiya qilishni marketing faoliyatini amalga oshirishdan uni xizmatlar bozoriga chiqishigacha bo'lgan bosqichlarning har birida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni aniqlash imkonini kengaytirishga xizmat qilgan;

iqtisodiyot transformatsiyalashuvi jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ko'ra hududiy innovatsion infratuzilma elementlari zaruriy tarkibi optimal darajasini shakllantirish va barqaror aloqalarini o'rnatish orqali xizmat ko'rsatish sohasi sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash taklifi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2022-2023 yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 28 apreldagi 11/03-15-4985-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan

foydalanish xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliligini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni 0,18 %ga o'sish imkonini bergan;

tender asosida innovatsion ishlanmalar va loyihalarni realizatsiya qilish, kichik innovatsion korxonalarga imtiyozli kreditlar uchun davlat kafolatlarini taqdim etish asosida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2022-2023 yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 28 apreldagi 11/03-15-4985-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish hududlarda sohani rivojlantirish strategiyalari, kompleks dasturlari va soha yo'nalishida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasini" ishlab chiqishning ilmiy asoslanganlik darajasini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan, respublika miqyosida 3 ta va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hamji 144 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni tartibga solishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy mohiyati va xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, sohada innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullari va vositalari aniqlangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha xorij tajribasi ilmiy jihatdan o'rganilgan va ulardan respublikada foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Hozirgi iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida innovatsiyalar va innovatsion faoliyatning roli sezilarli darajada o'smoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiyalarni joriy qilmasdan yuqori darajadagi texnologiya, intensivlik va ilmiy yangilikka ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlarni yaratish deyarli mumkin emas. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida innovatsiyalar va innovatsion faoliyat raqobatga bardosh berishning samarali vositasi hisoblanadi. Chunki ular yangi turdagi ehtiyojlarning paydo bo'lishiga, mahsulot (xizmat) tannarxining pasayishiga, investitsiyalar oqimiga, yangi mahsulot ishlab chiqaruvchilarning obro'ini oshishiga, yangi bozorlar, shu jumladan, xorijiy bozorlarni ochish va egallashga shart-sharoit yaratadi.

So'nggi o'n yillikda xizmat ko'rsatish sohalari bilimlar iqtisodiyoti va innovatsiyalarga intensiv ravishda integratsiya qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar tobora ko'payib borayotgan kompaniyalarning biznes jarayonlarini ajralmas qismiga aylanib bormoqda va fan sig'imi darajasi bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasi sanoat bilan birga jadal sur'atlarda o'sib bormoqda.


Xizmat ko'rsatish sohasida xo'jalik sub'ektlarining ilmiy salohiyati davlat tomonidan moliyalashtirish hisobidan jiddiy ravishda o'sib bormoqda. Bugungi kunda davlat mablag'larining asosiy qismi xususiy tadqiqot markazlari va laboratoriyalari, axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar hamda muhandislik-qurilish kompleksiga yo'naltirilmoqda. Bir qator tarmoqlar, xususan, sog'liqni saqlash uchun tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi fundamental tadqiqotlarga davlat mablag'lari sarflanishi, innovatsiyalarni rag'batlantirish, moddiy resurslar, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatini oshirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiya – bu yangi g'oyalarni izlash, mahsulotlarni yaratish va amaldagi mahsulotni takomillashtirish, ularni ishlab chiqarish uslublari, sarf-xarajatlarni tejash, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshirish jarayoni sifatida bozorda realizatsiya qilish asosida talab va taklif muvofiqligiga erishish bosqichini namoyon qiluvchi faoliyat natijasidir.

Innovatsion faoliyat – ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar assortimentini kengaytirish va yangilash hamda sifatini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish va tijoratlashirishga, keyinchalik ichki va tashqi bozorga joriy etish hamda samarali joriy etishga qaratilgan faoliyat.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion faoliyat bozorga sifat jihatidan yangi yoki takomillashtirilgan xizmatlarni taqdim etish orqali o'zini namoyon qilishi mumkin. O'z navbatida, bu nafaqat sifat jihatidan yangi xizmat, balki xizmat ko'rsatishning tubdan yangi xususiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Respublikamizda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun xizmat ko'rsatish va servis sohasida innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Shunga ko'ra, respublikamiz turli hududlarining amaliy tajribalarini tahlil qilish asosida hududiy xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlari ishlab chiqildi. (1-rasm).




1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ⁶

Ushbu mexanizmning o'ziga xos jihati shundaki, yetakchi o'rin hududning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarga berilgan.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mexanizm tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda faol ishtirok etishga yoʻnaltirilgan, uning manfaatlarini inobatga oladi va hududdagi korxonalar tomonidan innovatsiyalarga boʻlgan talabni rivojlantirishga qaratilgan. Keng maʼnoda mazkur mexanizm tashabbuslar va uni amalga oshirish boʻyicha tadbirlar – ilm-fan va biznes hamkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish yoʻnalishlarini belgilaydi.


Xizmatlarni ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari standartlashtirish tizimlarini shakllantirish va joriy etish muammolari bilan bevosita oʻzaro bogʻliq. Xizmatlarga tatbiqan unifikatsiyalash, standartlashtirish va sertifikatlashtirish masalalari murakkab jarayonni oʻz ichiga oladi. Shunga koʻra, xizmat koʻrsatish sohasida innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish tizimi xizmat koʻrsatishda “oʻzaro munosabatlar marketingi”dan faol foydalanishga koʻra raqobat bozorida yangi turdagi xizmatni sertifikatlash kabilarni eʼtiborga olgan holda takomillashtirildi (2-rasm).



2-rasm. Xizmat koʻrsatish sohasida innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish tizimi⁷

3-rasmda xizmat koʻrsatish korxonasining marketing tizimida innovatsiyalarni boshqarish texnologiyasi keltirilgan boʻlib, unda soha korxonalarida innovatsiyalarni joriy etishning natijaviy koʻrsatkichlaridan biri sifatida raqobatbardoshlik va korxonalar imijini baholash jarayonidagi bosqichlar keltirilgan. Bunda xizmat koʻrsatish korxonasi marketingi doirasida innovatsion siyosatni tayyorlash, shakllantirish, amalga oshirish va samaradorligini baholashning ketma-ket bosqichlari ifodalangan. Ushbu tahlil kompaniya mijozlar ongida qanday oʻrin egallashini, ular qanday yangi mahsulotlarni (xizmatlarni) sotib olishga tayyorligini va qanday yangi mahsulotlarni qabul qilmasligini tushunishga imkon beradi.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. Xizmat ko'rsatish korxonasi "o'zaro munosabatlar marketingi" tizimida innovatsiyalarni boshqarish texnologiyasi⁸

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha rivojlangan mamlakatlar va ijtimoiy taraqqiy etgan davlatlar tajribalaridan foydalanish hamda amalda qo'llash, xizmat ko'rsatish

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

korxonalari innovatsion faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shunga ko'ra, respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi modeliga xos jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasidan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Ularga quyidagilar kiradi: kompaniyaning ilmiy-tadqiqot xarajatlarini chegirib tashlash orqali imtiyozli soliqqa tortish; kichik innovatsion kompaniyalar loyihalarini venchur moliyalashtirish; innovatsion loyihalarni imtiyozli asosda kreditlash; hamkorlik aloqalariga asoslangan ilmiy-tadqiqot sherikliklarini yaratish; asosiy vositalarning tezlashtirilgan amortizatsiyasini qo'llash, ishlab chiqarish uskunalarni yangilashga investitsiyalar bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash, ustuvor tarmoqlar va xizmatlarni dasturiy maqsadli moliyalashtirish; innovatsiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish xarajatlarining bir qismini subsidiyalash, innovatsion faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklik jamg'armalarini yaratish asosida davlat investitsiya funksiyalarining bir qismini xususiy va korporativ sektor zimmasiga yuklash yoki rag'batlantirishi; innovatsion loyihalarni imtiyozli kreditlashning samarali usullarini joriy etish.

Dissertatsiya ishining **“Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati va innovatsion faoliyatni baholashning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari hamda hududda ilmiy-innovatsion soha rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish omillari va marketing tadqiqoti risklari uslubiy jihatdan tadqiq qilingan.

Iqtisodiyotda innovatsion boshqaruv uslublari va texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sohasini mavjud to'plangan tajribalar vositasida rivojlantirish samaradorligini oshirish muayyan darajadagi ilmiy yondashuvni talab etadi. Xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish ham xizmat ko'rsatish sohasining alohida tarmoqlari ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, ham alohida xizmat turlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida hududiy dasturlar amalga oshirilib, zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish asosiy yunalishlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda jami xizmatlar hajmi 2023-yilda 28992,0 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 2,3-martaga o'sgan. Viloyatda 2019-2023-yillarda eng yuqori o'sish sur'atlariga ega tarmoqlar sifatida yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,7 marta), sog'liqni saqlash xizmatlari (3,0 marta), ta'lim xizmatlari (2,8 marta), moliyaviy xizmatlar (2,6 marta), shaxsiy xizmatlar (2,5 marta) va kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2,3 marta) hissasiga to'g'ri kelgan (1-jadval).

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ishlab chiqarish sohasida innovatsiyalarni yaratish va boshqarishdan farqli ravishda o'ziga xos xususiyatlariga ega. Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarning katta qismi patentlanmaydi, bu esa innovatsiyalarning hayotiylik davrini jiddiy ravishda qisqartiradi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar bo'yicha natijalarning yuqori noaniqligi xosdir. Uchinchidan, innovatsiyalar samaradorligini baholash yetarlicha murakkabdir.

To‘rtinchidan, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy qilishga kompleks yondashuv zarur.

1-jadval

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi va tarmoqlarida xizmatlar turlari bo‘yicha hajmi⁹ (mlrd. so‘m)


Sohalar va tarmoqlar	Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan o‘rish, (%)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami xizmatlar Shu jumladan:	12786,8	14086,1	18259,0	22953,6	28992,0	2,3 марта
Aloqa va axborot- lashtirish	633,7	716,9	835,8	1073,7	1318,4	2,1 марта
Moliya xizmatlari	1712,7	2123,6	2613,2	3590,7	4541,0	2,6 марта
Transport xizmatlari	3152,9	3371,1	4604,7	5383,4	6805,1	2,2 марта
Shu jumladan: avto- transport xizmatlari	2889,3	3252,1	4335,5	5002,6	6180,5	2,1 марта
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	461,4	400,0	629,6	1063,8	1717,5	3,7 марта
Savdo xizmatlari	3648,9	4205,2	5175,9	6239,8	7511,1	2,1 марта
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	329,4	321,7	466,8	567,2	681,7	2,1 марта
Ta‘lim xizmatlari	556,8	694,2	1003,6	1202,0	1578,7	2,8 марта
Sog‘liqni saqlash xizmatlari	193,8	260,7	341,2	464,4	585,2	3,0 марта
Ijara va prokat xizmatlari	404,6	423,6	548,4	662,0	771,3	190,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash	349,5	367,7	538,3	650,7	821,3	2,3 марта
Shaxsiy xizmatlar	522,5	545,0	761,3	999,7	1286,9	2,5 марта
Me‘morchilik sohasidagi xizmatlar	313,8	321,1	318,3	370,1	477,5	152,2
Boshqa turdagi xizmatlar	506,8	335,3	421,9	686,1	896,3	176,9

Samarqand viloyatida 2023-yilda eng ko‘p qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar (25,8%) yo‘naltirilgan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 3,3 % ni tashkil qilgan (4-rasm).

Servis tashkilotlarida innovatsiyalarning bir qator tasnifiy belgilarini ajratish mumkin. Uning ob‘ekti o‘zgarishiga bog‘liq holda quyidagi turdagi innovatsiyalarni ajratish mumkin: texnik – yangi turdagi asbob-uskunalar, qurilmalar, jihozlar hamda xizmat ko‘rsatishda mehnatning texnik va texnologik usullarini joriy etish bilan bog‘liq; tashkiliy-texnologik – xizmatlarning yangi turlari, xizmat ko‘rsatishning yanada samarali shakllari bilan bog‘liq; boshqaruv – menejment usullari va shakllaridan foydalangan holda tashkilotning ichki va tashqi


⁹ Muallif tomonidan Samarqand viloyati Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

aloqalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan; kompleks – bir vaqtda xizmat ko'rsatish faoliyatining turli jihatlarini va tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan.



4-rasm. Samarqand viloyatida 2023-yilda innovatsiyon faoliyatni rivojlantirish uchun jalb qilingan investitsiyalar yo'nalishlari¹⁰, %

O'z rivojlanishida barcha tizimlar ularda sodir bo'ladigan jarayonlarning keskin sifat o'zgarishiga (bifurkatsiyasiga) va umuman tashkilotning transformatsiyalashishiga olib keladigan chegara nuqtalaridan o'tadi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish zarurati bozor va chuqur raqobat hamda texnologiyalarning tez o'zgarishi va eski xizmat ko'rsatish usullari qabul qilinishi mumkin bo'lmagan yangi avlod uskunalarining paydo bo'lishi kabi omillar bilan bog'liq.



5-rasm. Samarqand viloyatida 2023-yilda innovatsiyalar joriy etilgan sohalar¹¹

¹⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

¹¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika

Samarqand viloyatida 2023-yilda jami joriy qilingan innovatsiyalarning 1,1 %i ta'limni rivojlantirish, 2,4 %i axborot va aloqa sohasiga yo'naltirilgan. Bu sohalar hozirgi kunda xizmat ko'rsatishning drayver sohalaridan hisoblanadi (5-rasm).

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Samarqand viloyati Urgut tumanida tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalarining ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, "Urgut savdo markazi" va "Urgut MALL" savdo korxonalarida sof foyda hajmi tahlil etilayotgan boshqa savdo korxonalariga nisbatan yuqori bo'lib, ularda mahsulot sotish rentabelligi 2023-yilda mos ravishda 30,3% va 30,1%ni tashkil etgan.

2-jadval

Samarqand viloyati Urgut tumanida faoliyat ko'rsatayotgan xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari¹²

Ko'rsatkichlar	Korxonalar nomi	"Urgut savdo markazi"	"Xo'jabaland savdo markazi"	"Urgut jo'ralar savdo markazi"	"Ispanza savdo markazi"	"Uz brend savdo markazi"	"Fayz savdo markazi"	"Urgut MALL"	"Urgut savdo kompleksi"
	Yillar								
Sof foyda, mln, so'm	2022	62,3	51,1	48,7	46,3	50,2	48,6	63,8	53,9
	2023	69,5	62,8	59,3	55,4	58,6	59,3	72,4	61,7
Mahsulot tannarxi mln, so'm	2022	205,9	210,2	190,9	197,0	219,2	204,2	211,6	223,6
	2023	228,4	243,8	225,7	215,1	238,2	235,1	237,3	247,3
Mehnat unumdorligi o'sishi %	2022	138,3	123,5	123,8	112,7	121,3	117,8	137,4	125,8
	2023	139,4	123,9	127,2	113,4	121,9	119,3	138,5	126,3
Kadrlar salohiyati %	2022	27,0	18,0	15,0	16,0	15,0	14,0	26,0	19,0
	2023	28,0	19,0	16,0	16,0	17,0	15,0	28,0	21,0
Mahsulot sotish rentabelligi %	2022	30,3	24,3	25,5	23,5	22,9	23,8	30,1	24,1
	2023	30,4	25,7	26,3	25,8	24,6	25,2	30,5	24,9
Asosiy fondlar rentabelligi, %	2022	10,6	5,1	2,6	0,6	1,5	1,3	10,9	7,9
	2023	10,9	5,5	2,8	0,7	1,7	1,4	11,5	8,1
Jami xizmatlar hajmida innovatsiyalar ulushi, %	2022	7,5	6,5	3,2	-	6,1	6,2	10,5	8,0
	2023	8,2	6,9	3,5	3,0	6,4	6,5	11,0	8,2
Sof foyda hajmida innovatsiyalar ulushi, %	2022	8,2	7,5	6,2	-	9,5	7,7	12,0	9,4
	2023	9,5	7,9	6,3	5,8	10,6	7,9	13,5	9,9

Shuningdek, ushbu yilda mehnat unumdorligini o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bo'yicha ham "Urgut savdo markazi" (139,4%) va "Urgut MALL" (138,5%) savdo korxonalarida eng yuqori bo'lgan. Jami xizmatlar hajmida innovatsiyalar ulushi bo'yicha ham nisbatan yuqori bo'lib, "Urgut savdo markazi" va "Urgut MALL" savdo korxonalarining ulushi 2023-yilda mos ravishda 8,2% va

boshqarmasi ma'lumotlari.

¹²Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida hisoblangan.

11,0%ni tashkil qilgan. Sof foyda hajmida innovatsiyalar ulushi eng yuqori ko'rsatkich "Urgut MALL" savdo korxonasi (13,5%) hissasiga to'g'ri kelgan (3-jadval).

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarga zamonaviy yondashuv tobora ko'proq innovatsiyalarni jarayon sifatida ko'rib chiqishga asoslanmoqda. Asosiy e'tibor yangilanish va doimiy takomillashtirish jarayoniga qaratilgan. Mijoz mavhum xizmat uchun emas, balki uni taqdim etishning muayyan jarayoni uchun haq to'laydi. Ushbu jarayonlar ijrochini mijozning motivlari haqidagi bilimidan kelib chiqadi va u xizmat ko'rsatishga bag'ishlashga tayyor bo'lgan vaqtga to'g'ri kelishi kerak. Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatga bardosh berishi va uning gullab-yashnashi qiymat yaratish jarayonining natijasi bilan uzviy bog'liq. Bunga erishish uchun korxonalar innovatsion strategiyani ishlab chiqishi zarur.



KH va TH – konstruktorlik va texnologik hujjatlashtirish

ITT – ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni texnologik tayyorlash

6-rasm. Raqobat bozorida yangi turdagi xizmatni realizatsiya qilish jarayoni ketma-ketligi¹³

Raqobatdosh bo'lmagan bozor shu bilan shartlanganki, bunda xaridor ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi)dan raqobatbardoshligi yuqori xizmatlarga talabni shakllantirishga harakat qiladi va ham bozor uchun, ham sotuvchi uchun unda innovatsiyaning o'ziga xos turini tashabbuskori va shakllantiruvchisi bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi uchun xususiy buyurtmani amalga oshiradi. Zamonaviy raqobat bozorida yangi turdagi xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonining ketma-ketligi marketing faoliyatini amalga oshirishdan uni xizmatlar bozoriga chiqishigacha bo'lgan o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi (6-rasm). Shunga ko'ra, raqobat bozorida yangi turdagi xizmatni realizatsiya qilish jarayoni marketing tadqiqotlari o'tkazish, faoliyatni rejalashtirish, sertifikatlash,

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xizmat ko'rsatish jarayonini texnologik tayyorlash hamda realizatsiya qilish bosqichlarini shakllantirish asosida takomillashtirildi.

Xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil – bu iste'molchining afzal ko'rgan tizimlari va ularning rivojlanish tendensiyalarini tushunish hamda ehtiyojlarni eng yaxshi tarzda qondirish qobiliyati hisoblanadi. Iste'molchi uchun xizmat ko'rsatish jarayoni natija singari muhim ahamiyatga ega, shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasida “tashqi” va “ichki marketing”dan tashqari, “o'zaro munosabatlar marketingi”dan foydalanish talab etiladi. Bu xodimlarning iste'molchiga uning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, malakali xizmat ko'rsatish va u bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini belgilaydi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini innovatsion rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratish hamda me'yoriy va boshqa huquqiy hujjatlarini qabul qilish davlat hokimiyati organlari tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy shakli hisoblanadi. Ushbu faoliyat innovatsiyalarni yaratish va takomillashtirishni nazarda tutadi: yagona davlat innovatsion siyosatini realizatsiya qilish maqsadidagi qonunchilik, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda uni rag'batlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilishni me'yoriy-huquqiy ta'minlash, uni xizmat ko'rsatish jarayonlariga jalb qilish; xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishda davlat-xususiy sherikchilik shaklida keng ko'lamda foydalanish; xizmat ko'rsatish sohasida mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning konseptaul yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlanib, sohada innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

